

## JADIDLARNING MILLIY MATBUOTGA QO‘SHGAN HISSASI

**Husanova Sevara Zokir qizi***Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti 2- kurs talabasi**[husanovasevara20@gmail.com](mailto:husanovasevara20@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur mavzu XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub burilish yasagan jadidchilik harakati vakillarining milliy matbuotga qo‘shgan beqiyos hissasini tahlil qiladi. Maqolada jadidlar tomonidan asos solingan ilk milliy nashrlar ("Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Oyna" va boshqalar) xalqning o‘zligini anglash, ma’rifat tarqatish va ozodlik g‘oyalarini ilgari surishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi jadid yetakchilarining publitsistik faoliyati, til islohoti va milliy jurnalistika janrlarining shakllanishidagi xizmatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot jadid matbuotining jamiyatni modernizatsiya qilish va milliy mustaqillik mafkurasini yaratishdagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Аннотация.** (на русском языке) Данная работа посвящена анализу неопределимого вклада представителей джадидского движения в становление и развитие национальной прессы Туркестана в начале XX века. В аннотации рассматривается роль первых национальных изданий («Тараккий», «Хуршид», «Садой Туркистон», «Ойна» и др.) в процессе самопознания народа, распространения просвещения и продвижения идей свободы. Также исследуется публицистическая деятельность таких лидеров джадидизма, как Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркары Абдурашидханов и Абдурауф Фитрат, их заслуги в реформировании языка и формировании жанров национальной журналистики. Исследование направлено на раскрытие значения джадидской прессы в модернизации общества и создании идеологии национальной независимости.

**Abstract.** This work analyzes the invaluable contribution of the Jadid movement representatives to the formation and development of the national press in Turkestan at the beginning of the 20th century. The abstract examines the role of the first national publications ("Taraqqiy", "Khurshid", "Sadoi Turkiston", "Oyna", etc.) in the process of national self-awareness, the spread of enlightenment, and the promotion of freedom ideas. It also explores the journalistic activities of Jadid leaders such as Mahmudkhuja Behbudi, Munavvarkari Abdurashidkhanov, and Abdurauf Fitrat, as well as their merits in language reform and the shaping of national journalism genres. The research aims to reveal the significance of the Jadid press in modernizing society and creating the ideology of national independence.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, milliy matbuot, Turkiston, ma’rifatparvarlik, publitsistika, milliy o‘zlikni anglash, Mahmudxo‘ja Behbudiy, til islohoti, mustaqillik g‘oyasi.

**Ключевые слова:** Джадидизм, национальная пресса, Туркестан, просветительство, публицистика, национальное самосознание, Махмудходжа Бехбуди, языковая реформа, идея независимости.

**Keywords:** Jadidism, national press, Turkestan, enlightenment, journalism, national self-awareness, Mahmudkhuja Behbudi, language reform, idea of independence.

Bugungi kunimizning ajralmas qismi bo‘lib ulgurgan va xalqimiz uchun salmoqli o‘rin egallaydigan milliy matbuotimiz alloqachon xalqimiz hayotiga chuqur o‘rin egallagan. Biz har yili nishonlaydigan O‘zbekiston matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni aynan 27- iyun sanasida nisholashimizning o‘z mohiyati bor. Bundan 120- yil avval ya’ni 1906- yilda bizning ma’rifat vakilimiz Ismoil Obid tomonidan yurtimizdagi ilk gazetaga asos soldi bor yo‘g‘i 20 ta soni chiqqan bo‘lsada u xalq taraqqiyotiga fikrlarni o‘stirish, xalqni ma’rifatli qilish, xalq salohiyatini o‘stirishda ilk fundamental bilim bo‘ldi. Barcha jamiyatda bo‘lgani sari bizning yurtimizda ham axborotga asrida shakl shubhasiz biz bunga ehtiyoj sezamiz. Har bir narsaning tarixi bor degandek bizning milliy o‘zbek matbuotimizni ham uzoq o‘tmishi bor. O‘zbek matbuoti tarixi jadidchilik harakati va jadid ziyolilari nomi bilan tabiiy bog‘lanadi. Bilasizmi, Jadidchilik bizni qorong‘ulikdan olib chiqqan, ancha chuqur murakkab, ziddiyatli, ayni damda yangiliklarga ezgu orzu niyatlarga, amaliy faoliyatlarga to‘la bir ijtimoiy –siyosiy, adabiy –marifiy harakatdir. Jadidlar nafaqat milliy matbuotni balki milliy teatrni, badiiy adabiyotni va milliy kutubxonalarini tashkil etishni ko‘zda tutdilar.

Ilk milliy nashrlarning asos solinishi: 1906-yilda Ismoil Obidiy tomonidan ta’sis etilgan «Taraqqiy» gazetasi jadid matbuotining otaxoni hisoblanadi. Shundan so‘ng «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona» kabi gazetalar hamda «Oyina», «Al-Islom» kabi jurnallar dunyoga keldi. Ona tilining rivoji: Matbuot tilini murakkab arab-forsiy so‘zlardan xalos etib, sodda, xalqqa tushunarli bo‘lgan milliy adabiy tilga asos soldilar. G‘oyaviy kurash va uyg‘onish: Millatni birlashtirish, mustamlakachilikka qarshi kurashish, dunyoviy fanlarni o‘rganish va huquqiy savodxonlikni oshirish g‘oyalarini ochiq targ‘ib qildilar. «Haq olinur, berilmas» shiori ularning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi bo‘lgan. Jadidona tanqidiy uslubning shakllanishi: Jamiyatdagi nuqsonlar, qoloqlik, xurofot va ijtimoiy adolatsizliklarni fosh qiluvchi tanqidiy va hajviy maqolalarni ommalashtirdilar. Yangi janrlar va muharrirlik maktabi: Milliy matbuotda felyeton, ocherk, publitsistik maqola kabi janrlarni joriy etdilar. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon kabi buyuk ziyolilar o‘zbek milliy jurnalistikasi va publitsistikasi maktabini yaratdilar.

Turkistonlik ziyolilar o‘zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga Boqchasaroyga ko‘z tikishdi. Jadidlar Gasprinskiyning “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini o‘qib uni muxlisiga aylanishidi .

*Gazetaning yo‘li , maslagi va maqsadi aniq edi :*

“Tarkiston” har turi ish ,ahvol va ixtilofga “haqqoniyat” va “mumkinyat” jiyatdan boqajakdir.” Tarjimon “tavhidi lison ,tavhidi afkor va maorif milliya masalalarida g‘ayrati davomida bo‘lajakdir.” Tarjimon “-har na so‘ylar va yozar bo‘lsa , bu kunda millatning anglami ,idrok va qabul etishi suratda arz va bayon etajakdir. “Tarjimon” ning Turkistondan o‘quvchilari ko‘p bo‘lsa ham, bosilishining boshlarida turkistonlik yozuvchilar juda kam onda –sonda ishtirok etdi. Keyinchalik ,ya‘ni XX asr boshlaridan boshlab Mahmudxo‘ja Behbudiy (Samarqand ) Oxund mulla Mavdud Ohimov (Toshkent) Mirhusayn Mirrahimov (Qo‘qon), Abduqodir SHakuriy (Samarqand), kabi jadidlarchilarimiz qatnashadi.

O‘zbekiston matbuoti tarixida jadid ziyolalari nashr qilgan gazeta va jurnallar son-sanog‘i ko‘p. Bir marta chiqib to‘xtaganlari bor. Ularning ba‘zilari o‘z yo‘l-yo‘rig‘a ko‘ra jiddiy farqlanadi ham . Garchand o‘zaro qarama-qarshi kayfiyatda bahslashadiganlari bo‘lsa ham ular oldiga qo‘ygan maqsadlari nihoytda ezgu , qarashlari tiniq edi . Millatni uyg‘otishdek ulkan vazifa ijrosiga bel bog‘lagan edi jadidlar va ularning maktabi ,maorifi ,teatri, adabiyoti va matbuoti butun Turkiston hayoti uchun juda muhim o‘rin tutdi . Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining publitsistik faoliyatini 1902-yilda Turkistonda mahalliy tilda nashrdan chiqqan rasmiy “Turkiston viloyatinining gazetasi “dan boshlagan . Gaspirinskiy 1904- yilda bo‘lib o‘tgan rus- yapon urushi munosabati bilan “Tarjimon” gazetasida musulmonlarni ushbu urushda qatnashayotgan rus hamda musulmon askarlariga yordam ko‘rinishida pul ,kiyim - kechak ,oziq –ovqat to‘plab jo‘natishga da‘vat qilib bir qancha maqola yozgan. Behbudiy ham aynan shu mavzuda “Turkiston viloyatining gazetasi” ro‘znomasida kichik maqola e‘lon qilgan.

Maqolada Behbudiy Turkiston aholisiga musulmonlar nima uchun rus askarlariga hamda podsho hokimiyatiga yordam berishlari sababini tushuntiradi . Yozuvchi o‘z so‘zlarining isboti ko‘rinishida “gazetalarda yozilib” turgan “Qrim tarafidagi ba‘zi shaharliklar” mablag‘ va kiyim yig‘ib yuborganliklari hodisasini misol tariqasi . Behbudiy “gazetalar” deganida aynan “Tarjimon “ gazetasini nazarda tutgan va “Tarjimon” da berilgan ma‘lumotlardan foydalangan<sup>[24]</sup>

Yana ko‘plab jadidchilarimiz o‘zining ulkan salohiyati sababli xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

### **Xulosa**

Millatimiz faxri Jadid bobolarimizning ma‘rifat va taraqqiyotga qo‘shgan hissasi buyuk. Jadid bobolarimiz xalqimiz tarixida ma‘rifatparvarlik ,matbuot asoschilari, milliy

maktabimiz asoschilari siifatida tariz zarvaraqlarida oltin harflar ila o'chmas iz qoldirdi .XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ular o'z hayotini xalqni ilmga chorlash , millatimizni asrlar davom etib kelayotgan qorong'ulikdan taraqqiyot chiqqisiga olib chiqishni ko'zda tutdilar va bunga erishdilar. Ular dastab Ma'rifat yo'lini tanlashdi va maktablar ochib xalqni "Usuli savtiya "orqali o'qitishni boshlab yubordilar va oddiy xalqni bilimli qilishni boshlashdi .Jadidchilarimiz shu vaqt mobaynida milliy matbuotga ham asos soldi va o'zlarining matbuot tizimini yaratishdi.Jadidchilarimiz yoshlarga ham ko'plab pand nasihatlarini qoldirib ketishdi shu o'rinda aytish zarurki

*“Mayda hikoyalar yozganda so'zni ortiqcha isrof qilg'andan ko'ra, kerakliklarini ham mumkin qadar ozroq ishlatish kerak”*

Degan

-

Abdulla

Qodiriy—

Julqunboy

«Sovet adabiyoti» — 1936 yil, 3-sonda

#### ADABIYOTLAR

1 Munavvar Qori Abdurashidxonov

Yoshlar Nashiryoti Uyi Toshkent – 2022

2 Kun.uz maqolasi

3 Yuz. Uz

4 Ziyouz .com